

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.09.2020.T.111.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**

**UMIROV ASROR PARDAYEVICH**

**MUQOBIL ENERGIYA MANBALARI ASOSIDAGI ENERGETIK  
TIZIMLARDAN NASOS STANSIYALAR SAMARADORLIGINI  
OSHIRISHDA FOYDALANISH**

**05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari  
asosidagi energiya qurilmalari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора диссертации философии (PhD)  
по техническим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on technical sciences**

**Umirov Asror Pardayevich**

Муқобил энергия манбалари asosidagi energetik tizimlardan nasos stansiyalar samaradorligini oshirishda foydalanish..... 3

**Умиров Асрор Пардаевич**

Использование энергетических систем на основе альтернативных источников энергии для повышения эффективности насосных станций... 23

**Umirov Asror Pardaeovich**

The use of increasing the efficiency of pumping stations of energy systems based on alternative energy sources..... 45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 49

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.09.2020.T.111.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**

**UMIROV ASROR PARDAYEVICH**

**MUQOBIL ENERGIYA MANBALARI ASOSIDAGI ENERGETIK  
TIZIMLARDAN NASOS STANSIYALAR SAMARADORLIGINI  
OSHIRISHDA FOYDALANISH**

**05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari  
asosidagi energiya qurilmalari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2024**

Texnika fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/T3332 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.qmii.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Urishev Bobaraim**

texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Yuldoshev Isroil Abriyevich**

texnika fanlari doktori, professor

**Sadullayev Nasullo Nematovich**

texnika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti"  
Milliy tadqiqot universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti huzuridagi PhD.03/30.09.2020.T.111.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil " 6 " 04 soat 19<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 180100, Qarshi sh., Mustaqillik shoh ko'chasi, 225 uy. Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti konferensiyalar zali. Tel: (75)-224-02-89, faks: (75) 224-13-95 (e-mail: kiei\_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 100 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 225-uy. Tel: (75)-224-02-89, faks: (75) 224-13-95 e-mail: kiei\_info@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil « 25 » 03 kuni tarqatildi.  
(2024 yil « 25 » 03 dagi № 21 raqamli restr bayonnomasi



**G.N.Uzoqov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

**X.A.Davlonov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash a'zosi, t.f.f.d., dotsent

**J.S. Axatov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash a'zosi, ilmiy seminar raisi vazifasini vaqtincha bajaruvchi, t.f.d., k.i.x.

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda muqobil energiya manbalaridan foydalanish asosida nasos stansiyalarining energiya samaradorligini oshirish, energiya ta'minoti tizimida energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish va nasos qurilmalarining ishonchligini ta'minlash masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo'yicha Xalqaro agentlikning ma'lumotlariga ko'ra hozirgi vaqtda sug'oriladigan yerlarning asosiy qismi jumladan, qishloq xo'jaligi sohasi rivojlanayotgan Hindiston, Afrika va Yaqin Sharq mamlakatlarida ham yangi qurilayotgan nasos qurilmalarining 75...80 foizida elektr energiya bilan ta'minlash uchun quyosh energiyasidan keng foydalanilmoqda<sup>1</sup>. Shu sababli muqobil energiya manbalari asosidagi energetik tizimlardan nasos stansiyalari samaradorligini oshirishda foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda muqobil energiya manbalaridan jumladan, quyosh va shamol energiyasidan nasos stansiyalar energiya ta'minoti tizimida foydalanish samaradorligini oshirish, energiya xarajatlarini kamaytirish, ortiqcha energiyani akkumulyatsiyalash, optimal parametrlarni aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda nasos stansiyasi yetkazib berayotgan suv tannarxini kamaytirish, suv ta'minoti ishonchligini oshirish, muqobil energiya manbalaridan maksimal foydalanish bo'yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga muqobil energiya manbalari asosidagi avtonom energiya tarmog'idan nasos stansiyalarning energiya ta'minotini amalga oshirishning funksional sxemalarini va tarmoqning energetik parametrlarini optimallashtirish, sug'orish tizimidagi nasos stansiyalarining energiya ta'minotida quyosh va shamol energiyasidan foydalanish samaradorligini oshirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Respublikamizda muqobil energiya manbalari asosidagi energetik tizimlardan nasos stansiyalar samaradorligini oshirishda foydalanish boyicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazish va olingan natijalarni amaliyotga joriy etish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 iyuldagi PF-6024-son "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020 - 2030- yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida "...suv xo'jaligi nasos stansiyalarining energiya samaradorligini oshirish va foydalanish xarajatlarini kamaytirish, nasos stansiyalarida muqobil energiya manbalari jumladan, quyosh fotoelektr qurilmalardan foydalanishni yo'lga qo'yish..." buyicha ustuvor vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda quyosh energiyasidan maksimal foydalanish uchun fotoelektrik qurilmaning kun davomidagi o'zgaruvchan quvvatiga nasos qurilmasi quvvatini moslab boshqarish, fotoelektrik qurilmaning optimal quvvatini tanlash, iste'moldan ortiqcha bo'lgan quyosh energiyasini akkumulyatsiyalashning samarali usullarini ishlab chiqish muhim vazifalardan hisoblanadi<sup>2</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son

<sup>1</sup> S. Senthil Kumar, Chidambaranathan Bibin, K. Akash, K. Aravindan, M. Kishore, G. Magesh Solar powered water pumping systems for irrigation: A comprehensive review on developments and prospects towards a green energy approach. Materialstoday: proceedings. Volume 33, part 1, 2020, pp 303 – 307. <https://doi.org/10.1016/j.matpr.2020.04.092>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6024-son Qarori. <https://lex.uz/docs/4892953>.

“2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019 yil 22 avgustdagi PQ-4422-son “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejoyvchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiqotlar respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Qayta tiklanuvchan energiya manbalaridan foydalanish usullarini rivojlantirish, nanotexnologiyalar, fotonika va boshqa zamonaviy ilg‘or texnologiyalar asosida qurilmalar va texnologiyalarni yaratish” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Muqobil energiya manbalari asosida ishlaydigan energetik qurilmalar, shu jumladan, sug‘orish tizimi, ichimlik suvi ta‘minotida qo‘llaniladigan nasos qurilmalarining tadqiqotlari bilan AQShning qayta tiklanuvchan energiya manbalari milliy laboratoriyasi (NREL), Sandiya milliy laboratoriyalari (Sandia National Laboratories), Buyuk Britaniyaning Sheffild, Nottingem universitetlari, Hindistonning milliy texnologiya instituti, qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo‘yicha Xalqaro agentlik (IRENA), Rossiya Federatsiyasining Moskva energetika, Sankt-Peterburg politexnika universitetlari va boshqa ilmiy muassasalardagi olimlar S.S. Chandel, Campana PE., Rawat R., Gopal C., Margeta J., Zhang C., Elia P., Vissarionov V.I., Yelistratov V.V., Karelin V. Y., Minayev A. V, Leznov B.S., Novoderejkin R.A., Cheng Li., Yang, Z., Pawel Olszewskilar shug‘ullanishgan.

Respublikamizda nasoslar ish rejimlarini rostdash masalalaridagi tadqiqotlar bilan o‘zbek olimlaridan R.A. Zaxidov, Tursunov M.N., Muxammadiyev M.M., Urishev B.U., Yuldoshev I.A., Tadjiyev U.A., Mamajonov M.M. va boshqalar shug‘ullanishgan.

Ushbu tadqiqotchilar ishlari natijalarining muhimligi va salmoqligini e‘tirof etgan holda ta‘kidlash mumkinki, quyosh energiyasidan kun davomida maksimal foydalanishni ta‘minlaydigan nasos qurilmalari ish rejimlarini fotoelektrik qurilmaning o‘zgaruvchan quvvatiga mos ravishda rostdash parametrlarini hisoblash metodikalarini va usullarini ishlab chiqish masalalari yetarlicha tadqiq qilinmagan. Shuningdek, sug‘orish tizimlaridagi nasos stansiyalarning energiya ta‘minotini qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosidagi lokal energiya tarmoqlari orqali amalga oshirish va bu tarmoqlarning funksional, raqamli texnologiyalarga asoslangan avtomatik sxemalarini ishlab chiqish va iqtisodiy samaradorligini aniqlash masalalari ham yetarli darajada ko‘rib chiqilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasini bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi muhandislik –iqtisodiyot institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq 2021 – 2023 yillarga mo‘ljallangan “Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan sanoat, qishloq xo‘jaligi va maishiy-kommunal sohalarda samarali foydalanishning ilmiy-texnik va energiya tejamkor usullarini ishlab chiqish” mavzusidagi tadqiqot

yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** muqobil energiya manbalari asosidagi energetik qurilmalar va tizimlardan nasos stansiyalarda foydalanish samaradorligini asoslashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

sugʻorish tizimidagi nasos stansiyalarining energiya taʼminotida muqobil energiya manbalaridan foydalanishning zamonaviy holatini tahlil qilish;

fotoelektrik nasos qurilmasining energetik parametrlari va ish rejimlarini hisoblashning grafoanalitik uslubiyatini ishlab chiqish;

fotoelektrik nasos qurilmasining tajribaviy nusxasini yaratish va unda eksperimental tadqiqotlarni bajarish;

muqobil energiya manbalari asosidagi lokal energiya tarmogʻidan nasos stansiyalarning energiya taʼminotini amalga oshirishning funksional sxemalarini va tarmoqning energetik parametrlarini aniqlashning uslubiyatini ishlab chiqish;

muqobil energiya manbalari asosidagi energetik qurilmalar va suv toʻplash havzasiga ega boʻlgan lokal energiya tarmogʻi texnologik jarayonining raqamlashtirilgan sxemasi ishlab chiqish;

sugʻorish tizimidagi nasos stansiyalarining energiya taʼminotida muqobil energiya manbalaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

**Tadqiqotning obekti** sifatida muqobil energiya manbalari asosidagi qurilmalar energiyasi bilan taʼminlanadigan sugʻorish tizimidagi nasos stansiyalar qabul qilingan.

**Tadqiqotning predmeti sifatida** nasos stansiyalarning ish rejimlari, gidravlik xarakteristikalarini va energetik parametrlari, quyosh energiyasidan nasos agregatlarini elektr energiyasi bilan taʼminlashda fotoelektrik qurilmaning energetik parametrlari qabul qilingan.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida gidravlikaning quvurlarda energiya oʻzgarishini Bernulli tenglamalari asosida aniqlash, nasoslar ish rejimlari va parametrlarini hisoblashning miqdor oʻzgarishi qonuniyatlari, nasoslar ishchi xarakteristikalarini aniqlashning grafoanalitik, nasos qurilmalarining xarakteristikalarini tajribaviy tadqiq qilish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

quyosh nurlanish energiyasining oʻzgarishi, nasosning chegaraviy bosimlari va suv berish unumdorligi, sugʻorish muddati, beriladigan suv hajmi hamda quvurlar tizimi parametrlarini hisobga olgan holda fotoelektrik nasos qurilmasining maksimal quvvatini hisoblash usuli ishlab chiqilgan;

fotoelektrik qurilmaning kun davomidagi oʻzgaruvchan quvvati qiymatlariga mos keluvchi nasos ish rejimini ishchi gʻildirak aylanishlari chastotasini oʻzgartirish usuli bilan rostdash parametrlarini nasos statik bosimi oʻzgarishlarini hisobga olib aniqlashning grafoanalitik usuli ishlab chiqilgan;

nasosning foydali ish koeffitsiyenti, statik bosimi, quvurlar tizimi oʻlchamlari va bosim yoʻqolishi qiymatlarini hisobga olgan holda, fotoelektrik qurilmaning oʻzgaruvchan quvvati qiymatlariga mos keluvchi nasos suv berish unumdorligining optimal qiymatlarini hisoblash imkonini beradigan matematik model ishlab chiqilgan;

quyosh va shamol energetik qurilmalari ishlab chiqargan elektr energiyasi

asosida nasos qurilmasining elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojini qondirish va ortiqcha energiya akkumulyatsiyalanadigan lokal energetik tizimning funksional sxemasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

yuqori va pastki suv baklari, har xil aylanish chastotasiga ega bo'lgan nasos va quyosh panellaridan iborat fotoelektrik nasos qurilmasi yaratilgan;

muqobil energiya manbalari asosidagi va suv to'plash havzasiga ega bo'lgan majmuaning texnologik jarayonini boshqarish sxemasi ishlab chiqilgan;

fotoelektrik nasos qurilmasining maksimal quvvatini aniqlash bo'yicha EHM uchun dastur ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot ishlarining ishonchliligi umume'tirof etilgan zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalanilganligi, eksperimental tajribalarning sinalgan usullar va vositalar asosida o'tkazilishi, olingan natijalarning hisobiy natijalarga adekvatligi bilan tasdiqlanadi. Dissertatsiyada keltirilgan ilmiy xulosalar, tavsiyalar va natijalar mazkur sohada ma'lum bo'lgan natijalarni inkor etmaydi, ularni to'ldiradi va foydalanish diapazonini kengaytiradi, yangi imkoniyatlarini yaratadi. Olingan natijalarni tayyorlash, tahlil qilish, ular ustida ishlash va ta'riflash zamonaviy ma'lumotlar bilan ishlash va statistik tahlil usullariga asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, olingan yangi natijalar sug'orish tizimidagi nasos stansiyalarni qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan elektr energiyasi bilan ta'minlashni ilmiy – texnik asoslash nazariyasi va amaliyotiga ma'lum darajada hissa qo'shadi.

Dissertatsiya ishida olingan natijalarning amaliy ahamiyati sifatida sug'orish tizimidagi nasos stansiyalarni muqobil energiya manbalari energiyasi bilan ta'minlash samaradorligini oshirish va nasos stansiyalarda energetik xarajatlarni kamaytirish usullari va sxemalarining ishlab chiqilganligini keltirish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Muqobil energiya manbalari asosidagi energetik qurilmalardan nasos stansiyalar samaradorligini oshirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

quyosh nurlanish energiyasining o'zgarishi, nasosning chegaraviy bosimlari va suv berish unumdorligi, sug'orish tizimi uchun beriladigan suv hajmi, sug'orish muddatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan fotoelektrik nasos qurilmasi Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanidagi "Fazliddin sifat chorva" fermer xo'jaligida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 12-iyuldagi №05/26-05/3411-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ekin maydonlarini sug'orish uchun foydalanilayotgan nasos qurilmalariga sarflanayotgan yillik energiya miqdoriga nisbatan 2 barobar iqtisodiy samaradorlikka erishilgan;

energiya ehtiyoji quyosh va shamol energetik qurilmalari asosida qoplanadigan, ortiqcha energiya akkumulyatsiyalanadigan lokal energetik tizimga ega bo'lgan fotoelektrik nasos qurilmasi Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanidagi "Fazliddin sifat chorva" fermer xo'jaligida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 12-iyuldagi №05/26-05/3411-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, tizim uchun sarflangan kapital xarajatlarning 4 yilda qoplanishiga hamda

yillik 40 ming m<sup>3</sup> gaz tejash va atmosferaga 64,15 tonna CO<sub>2</sub> zararli gaz chiqishining kamayishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 7 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy va ilmiy-texnik anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, shu jumladan 1 ta xorijiy jurnalda, 2 ta respublika jurnallarida va 3 ta maqola Scopus bazasidagi anjumanlar to'plamlarida nashr etilgan, 3 ta EHM dasturiy mahsuloti uchun guvohnomalar olingan.

**Tadqiqot hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya ishining hajmi 117 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsad va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqotning obyekti va predmeti hamda uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, olingan natijalari, ilmiy va amaliy ahamiyati bayon qilingan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, ishning aprobatsiyasi, chop qilingan ishlar, shuningdek dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Nasos stansiyalar energiya ta'minoti uchun muqobil energiya manbalaridan foydalanishdagi zamonaviy trendlar, muammolar, yutuqlar”** nomli birinchi bobida jahonda va O'zbekiston Respublikasidagi nasos stansiyalarda foydalanish masalalari bo'yicha adabiyotlar va ma'lumotlar tahlili natijasida ularda energiya harajatlarini tejash, uning iste'molini optimallashtirish hozirgi kundagi eng muhim masalalardan biri ekanligi, shuningdek bu masalaning asosiy yechimlaridan biri nasos stansiyalar energiya ta'minotida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ekanligi aniqlangan.

Bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari tahlili shuni ko'rsatayaptiki, fotoelektrik – nasos qurilmalaridan foydalanishda ortiqcha energiyani akkumulyatsiya qilish tizimlarini qo'llash qayta tiklanuvchi energiyadan to'liq foydalanishni ta'minlash hisobiga iqtisodiy samarali hisoblanadi, ayniqsa energiyani akkumulyatsiyalash uchun suv rezervuarlaridan foydalanish katta samara beradi. Adabiyotlar tahlili nasos stansiyalarni ishonchli va arzon elektr energiyasi bilan ta'minlashda tarkibi asosan shamol va quyosh elektr stansiyalaridan tashkil topgan lokal tarmoqlardan foydalanish samarador ekanligini ko'rsatdi.


Tahlillar natijalari bir qator masalalar yechimlarini topish uchun ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish zarurligini ko'rsatdi, masalan, fotoelektrik qurilma quvvatiga nasos qurilmasi quvvatining optimal ravishda moslashishini ta'minlaydigan hamda quyosh energiyasini akkumulyatsiyalash paytida nasos qurilmasining quvvati va napor qiymatlarining doimo o'zgarishi hisobga oluvchi fotoelektrik – nasos qurilmasi ish rejimlari va parametrlarini hisoblash uslubiyatini va dasturlarini ishlab chiqish,

nasos stansiyalarni lokal energetik tizimlar orqali ta'minlash sharoitida tizimning parametrlarini aniqlash uslubiyatini, funksional va boshqaruv sxemalarini ishlab chiqish masalalari yetarli darajada o'rganilmagan. Mazkur tahlillar asosida sug'orish tizimidagi nasos qurilmalarida quyosh energiyasidan samarali foydalanishni rivojlantirish tendensiyasidan kelib chiqib, dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari shakllantirildi.

Dissertatsiyaning **“Qayta tiklanadigan energiya manbalari asosidagi energetik va nasos qurilmalarining sxemalari, asosiy parametrlarini aniqlash”** nomli ikkinchi bobida qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosidagi sug'orish tizimida qo'llaniladigan energetik va nasos qurilmalarining asosiy sxemalari, ularning parametrlari va ish rejimini aniqlashning grafoanalitik uslubiyati hamda mazkur uslubiyat bo'yicha bajarilgan hisoblar natijalari berilgan.

Sug'orish tizimida qo'llaniladigan kichik energetik qurilmalarda quyoshning energiyasini akkumulyatsiyalash tizimlari bo'yicha bajarilgan tahlillar natijalariga ko'ra energiyani gidravlik usulda akkumulyatsiyalash eng maqbul usul hisoblanadi. Mazkur usuldan foydalanish mo'ljallangan sug'orish tizimi uchun fotoelektrik energetik nasos qurilmasi (FENQ) sxemasi 1–rasmda keltirilgan.

Fotoelektrik qurilma (FEQ) quvvatidan maksimal foydalanish maqsadida energiyani to'plash, sug'orishni amalga oshirish muddatlari, nasos agregatining iste'mol quvvatini maksimal ravishda FEQ quvvatiga moslash maxsus metodika va dastur asosida hisoblab chiqiladi hamda qurilmani boshqarish amalga oshiriladi.



1–suv manbai; 2–nasos agregati; 3–suv to'plash rezervuari; 4–FEQ; 5–inverter; 6–boshqaruv bloqi;  
7–suv sarfini o'lchash, taqsimlash bloqi; 8–suv berish quvuri; 9–ekin maydoni, 10 – nasos vali aylanishlari chastotasini o'zgartirish bloqi.

**1-rasm. Sug'orish tizimi uchun mo'ljallangan FENQ sxemasi**

Sug'orish uchun zarur bo'lgan kunlik suv hajmi sug'orish maydoniga xos bo'lgan iqlim, tuproq turi, yer osti suvlarining joylashishi va ekin turiga bog'liq holda qabul qilinadigan sug'orish meyori asosida aniqlanadi

$$V = m \cdot \omega, m^3 \quad (1)$$

bunda  $m$  – sug‘orish meyor (bir marta sug‘orish uchun),  $m^3/ga$ ;  $\omega$  -sug‘orish uchun belgilangan yer maydoni,  $ga$ .

$V$  hajmdagi suvni rezervuarga haydab berishda nasos agregatiga kerak bo‘lgan energiya miqdori quyidagicha aniqlanadi

$$\mathcal{E}_N = 9,81 \int_{t_1}^{t_2} Q(t) H(t) \eta^{-1}(t) dt; \quad (2)$$

bunda  $t_1$  va  $t_2$  – nasos agregatining ishlash vaqtining boshlanishi va tugashi soatlari (bu vaqt quyosh faolligi soatlari bilan belgilanadi).

Nasosning  $t$  vaqtdagi to‘liq nabori qiymati quyidagi formula bilan hisoblanadi

$$H(t) = H_G(t) + \Delta H(t) \quad (3)$$

bunda  $\Delta H(t)$  - nasosning suv manбайдan suv rezervuarigacha bo‘lgan masofadagi quvurlar tizimida yo‘qolgan nabor qiymati va bu qiymat gidravlik hisoblar yordamida aniqlanadi.

$$\Delta H(t) = \left( \sum \xi + \lambda \frac{l}{d} \right) \frac{g(t)_i^2}{2g} \quad (4)$$

bunda  $\sum \xi$  – quvurlardagi mahalliy qarshiliklar koeffitsiyentlari yig‘indisi,  $\lambda$  – quvurlardagi gidravlik ishqalanish koeffitsiyenti,  $l$  – quvurlar uzunligi,  $d$  – quvurlar diametri,  $g(t)$  – quvurdagi suv tezligi.

$Q(t)$  ning qiymatini nasos va quvurlar tizimi nabor xarakteristikasi tenglamalaridan foydalangan holda quyidagi bog‘lanish asosida aniqlandi.

$$Q(t) = k[H_0 - H_G(t)]^{0,5} \quad (5)$$

bunda,  $k$  – nasos qurilmasining suv oqish traktida, shu jumladan, quvurlarda gidravlik qarshiliklar qiymatlarini ifodalovchi koeffitsiyent

$$k = \frac{1}{(S_N + S_Q)^{0,5}} \quad (6)$$

$S_N$  – nasos nabor xarakteristikasining koeffitsiyenti,  $S_Q$  –quvurlar tizimining gidravlik qarshilik koeffitsiyenti,  $H_0$  – nasos suv berish unumdorligi nolga teng (qulfak yopiq) bo‘lgan holdagi nabor qiymati.

$S_Q$  qiymati quyidagi formula bilan aniqlanadi

$$S_Q = \Delta H_{opt} / Q_{opt}^2 \quad (7)$$

$Q_{opt}$  – nasos nabor xarakteristikasi bo‘yicha f.i.k. ning maksimal qiymatiga mos keluvchi suv berish unumdorligi qiymati,  $\Delta H_{opt}$  qiymati  $Q_{opt}$  qiymati bo‘yicha (4) bog‘lanish orqali hisoblanadi.


$S_Q$  va  $H_0$  qiymatlari B.S. Leznov metodikasi asosida nasos nabor xarakteristikasi grafigi bo‘yicha hisoblanadi.

Shunday qilib kunning  $t$  vaqtidagi nasos quvvatini  $Q(t)$  va  $H(t)$  qiymatlari asosida quyidagi tarzda aniqlanadi.

$$N_N(t) = 9,81 \cdot Q(t) \cdot H(t) / \eta(t) \quad (8)$$

$N_N$  qiymatlarining ichida  $N_{Nmax}$  ga mos keluvchi FEQning maksimal quvvatini topish mumkin.

Mazkur metodika bo'yicha hisoblarning EHM uchun dasturi olingan (№ DGU 14479) va uning blok–sxemasi 2 – rasmda keltirildi.




2–rasm. FEQning quvvatini hisoblash metodikasi blok-sxemasi

Quyosh energiyasidan maksimal foydalanishni ta'minlash uchun nasos quvvatini FEQ quvvatiga mos holda o'zgartirish (moslash) zarur bo'ladi, buni amalga oshirish uchun nasos vali aylanishlari sonini o'zgartirish usulini tanlaymiz. Val aylanishlari soni o'zgariganda nasoslar o'xshashligi qonuniyatlari asosida parametrlarning o'zgarishini qayta hisoblash uchun tavsiya etilgan tenglamalardan foydalanamiz. Hisoblarda olingan natijalar asosida nasos ish rejimining o'zgarishini grafik usul orqali ifodalandi (3 – rasm).

Yuqorida keltirilgan metodika bilan aniqlangan nasos qurilmasining maksimal quvvatiga mos keluvchi nasos tanlanib, uning ishchi xarakteristikasi ( $H_3 - Q$  ba  $\eta_3 - Q$ ) quriladi. Quyosh faolligi past bo'lgan vaqtlarda FEQ quvvatidan foydalanish uchun nasos vali aylanishlar soni kamaytiriladi va ushbu quvvatga mos keluvchi nasos parametrlari aniqlanadi hamda uning ishchi nuqtasi topiladi, masalan, bu holatga 1-ishchi nuqta mos keladi. Ushbu ishchi nuqtada nasos bir muddat ishlaganda yuqori suv rezervuarida suv sathi ko'tariladi, demak nasos nabori oshadi va ishchi nuqta 1' ga ўтади. Bu vaqt ichida FEQ quvvati ham oshadi va bunga mos ravishda nasos vali aylanishlar sonini ham ko'paytirib, nasos quvvatini oshiramiz va 2-ishchi nuqtaga, undan keyin nabor oshishi hisobiga 2' - nuqtaga ega bo'lamiz. Quyosh faolligi maksimal bo'lganda nasos ishchi nuqtasi 3, rezervuar to'lgan vaqtda 3' holatini egallaydi. Kunning ikkinchi yarmida quyosh faolligi kamayganda yana nasos

vali aylanishlari sonini kamaytiramiz va 4 va 4' hamda 5 va 5' ishchi nuqtalariga ega bo'lamiz. Shu tariqa nasos ish rejimi FEQ ish rejimiga moslashtiriladi, bunda nasos ish rejimining ishchi nuqtalar oralig'ida o'zgarishi strelkali punktir chiziq bilan ko'rsatilgan.




$H_3 - Q$  – nasosning pasportida berilgan napor xarakteristikasi;  $\eta_3 - Q$  – nasosning pasportida berilgan f.i.k. xarakteristikasi;  $H_1 - Q$ ,  $H_2 - Q$ ,  $H_4 - Q$  – nasosning aylanishlar chastotasi o'zgartirilganda yuzaga kelgan napor xarakteristikalari;  $H_{p1} - Q$ ,  $H_{p2} - Q$ ,  $H_{p3} - Q$ ,  $H_{p4} - Q$  va  $H_{p5} - Q$  – quvurlar tizimining geometrik napor  $H_G$  qiymatlari o'zgarganda yuzaga kelgan napor xarakteristikasi;  $\eta_1 - Q$ ,  $\eta_2 - Q$ ,  $\eta_4 - Q$  – f.i.k. ning nasos aylanishlar chastotasi o'zgarganda yuzaga kelgan xarakteristikalari; 3-nuqta nasosning nominal aylanishlar chastotasidagi ishchi nuqtasi; 1, 2, 4 – nasosning aylanishlar chastotasi o'zgargandagi ishchi nuqtalari; 1', 2', 3', 4' – nasosning  $H_G$  qiymatlari o'zgarganda yuzaga kelgan ishchi nuqtalari;  $H_\eta - Q$  – teng qiymatli f.i.k. grafigi.

**3 – rasm. Nasosning ish rejimi o'zgarishi grafiklari**

Ushbu metodika bo'yicha nasos ish rejimini tashkil qilishning afzalligini misol sifatida bir marta sug'orish uchun zarur bo'lgan 9000 m<sup>3</sup> suv miqdorini rezervuarda to'plash uchun kerak bo'ladigan energetik xarajatlar orqali aniqlaymiz. Agar ish rejimi rostanmaydigan (bir xil aylanishlar chastotasiga ega bo'lgan) nasosdan foydalanilsa, bu holda nasos faqat 6 va 3' ishchi nuqtalari oralig'ida  $H_G$  ning o'zgarishiga qarab ishlaydi, ya'ni 6 nuqtada 59,4 kVt, 3' nuqtada 54,9 kVt quvvatga ega bo'ladi va 5,9 soat davomida 9000 m<sup>3</sup> suv miqdorini to'plash uchun 337 kVt·soat elektr energiyasini iste'mol qiladi va bu energiyani ishlab chiqarishda FEQning maksimal quvvati  $N_{PV} = 96,3$  kVtni tashkil etadi (4 – rasm).

Ushbu rasmdagi grafikdan ko'rinib turibdiki, FEQ elektr energiyasining deyarli 40 % miqdori nasos qurilmasi tomonidan foydalanilmasdan qolmoqda. Agar nasos aylanishlar chastotasini o'zgartirish usulidan foydalanilsa, nasos quvvatini NPV ga moslash hisobidan 9000 m<sup>3</sup> suv miqdorini to'plash uchun 314,48 kVt·soat elektr energiyasi kerak bo'ladi va bu energiyani ishlab chiqarishda FEQning maksimal

quvvati 70 kVtni tashkil etadi, bu esa FEQning 81 % energiyasidan foydalanish imkonini beradi (4-rasm).



4 – rasm. Nasos qurilmasi va FEQ quvvatlari grafigi

Yuqorida keltirilgan (8) formuladan ko‘rinib turibdiki  $Q(t)$ ,  $H(t)$  va  $\eta(t)$  qiymatlarini  $N_N(t) = N_{PV}(t)$  ta‘minlash uchun mos ravishda boshqarish, rostlash lozim. Ushbu jarayonning matematik modelini  $H(t)$  uchun quvurlar tizimi napor xarakteristikasi tenglamasi  $H_r = H_G + s \cdot Q^2$  dan, nasosning maksimal f.i.k. uchun  $\eta = c \cdot Q - d \cdot Q^2$  tenglamasidan foydalanish asosida quyidagi bog‘lanish bilan ifodalash mumkin, ya‘ni

$$Q(t) = \frac{\sqrt{(N_{PV}(t) \cdot d)^2 - 384,94 \cdot s \cdot H_G(t) + 39,24 \cdot N_{PV}(t) \cdot c \cdot s - N_{PV}(t) \cdot d}}{19,62 \cdot s} \quad (9)$$

bunda,  $d$ ,  $c$  nasosning f.i.k. grafigi koeffitsiyentlari,  $s$  - quvurlar tizimi gidravlik qarshilik koeffitsiyenti.


Ushbu tenglama FEQ ning  $t$  vaqtdagi quvvatidan foydalanib  $H_G$  balandlikka suv haydab berayotgan nasosning suv berish unumdorligini modellashtirish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning “**Nasos stansiyalar samaradorligini oshirishda qayta tiklanuvchi energiya turlari asosidagi lokal (markazlashmagan) energetik tizimlardan foydalanish**” uchinchi bobida sug‘orish tizimidagi o‘rta va yirik nasos stansiya (NS)larni energiya bilan ta‘minlaydigan quyosh, shamol energetik qurilmalari va akkumulyatordan iborat bo‘lgan lokal energiya tizimi (LET)ning energetik parametrlarini hamda ish rejimlarini aniqlash uslubiyati va funksional sxemalari ishlab chiqilgan. Maksimal quvvati 18 MVt bo‘lgan mana shunday LETning kunlik ish rejimi grafigi 5 – rasmda berilgan.

Grafikdagi  $t_0$  dan  $t_1$  gacha vaqt oralig‘ida SHEQ ishlab chiqaradigan

energiyaning NS ehtiyojidan ortiq qismi akkumulyatsiyalanadi va bu jarayonni quyidagicha ifodalash mumkin

$$\mathcal{E}_{NS}(t_1 - t_0) = \int_{t_0}^{t_1} N_{SHEQ}(t)dt - \int_{t_0}^{t_1} N_{SHEQ}^{akk}(t)dt \quad (10).$$



- akkumulyatsiyalanadigan yoki markaziy energotizimga beriladigan energiya miqdori;
- akkumulyatsiyalangan zahiradan yoki markaziy energotizimdan olinadigan energiya miqdori;
- nasos stansiyasining o'rtacha kunlik energiya yuklamasi;
- FEQning kunlik energiya ishlab chiqarish grafigi;
- SHEQning kunlik energiya ishlab chiqarish grafigi;
- FEQ va SHEQning birgalikda energiya ishlab chiqarish grafigi

5 – rasm. SHEQ va FEQ ishlab chiqargan elektr energiyasi bilan nasos stansiyasini ta'minlovchi LET ish rejimi grafigi

Grafikning  $t_1$  va  $t_2$  oralig'ida agar SHEQ energiyasi yetarli bo'lmasa, akkumulyatsiyalangan energiyadan yoki markaziy energotizim (MET) dan NSni energiya bilan to'liq ta'minlash uchun foydalaniladi, ya'ni

$$\mathcal{E}_{NS}(t_2 - t_1) = \int_{t_1}^{t_2} N_{SHEQ}(t)dt + \int_{t_1}^{t_2} N_{akk}(t)dt \quad (11)$$


Grafikdagi  $t_2$  dan  $t_3$  gacha vaqt oralig'idagi quyosh faolligi davrida SHEQ va FEQning NS ehtiyojidan ortiq bo'lgan energiyasi akkumulyatsiyalanadi,

$$\mathcal{E}_{NS}(t_3 - t_2) = \int_{t_2}^{t_3} N_{SHEQ}(t)dt + \int_{t_2}^{t_3} N_{FEQ}(t)dt - \int_{t_2}^{t_3} N_{SHEQ+FEQ}^{akk}(t)dt \quad (12)$$

Ushbu to'plangan energiyadan  $t_3$  dan  $t_4$  gacha bo'lgan vaqt oralig'ida foydalaniladi va buni quyidagi tarzda ifodalash mumkin

$$\mathcal{E}_{NS}(t_4 - t_3) = \int_{t_3}^{t_4} N_{SHEQ}(t)dt + \int_{t_3}^{t_4} N_{FEQ}(t)dt + \int_{t_3}^{t_4} N_{SHEQ+\Phi FEQ}^{akk}(t)dt \quad (13)$$

Yuqorida ish rejimi grafigi keltirilgan LETning funksional sxemasi 6 – rasmda beriladi.



6 – rasm. LETning funksional sxemasi


LETning ish rejimi uch bosqichdan iborat bo‘lib, birinchi va ikkinchi bosqichda quyosh nurlanishi bo‘lmagan holda SHEQning quvvati NS quvvati bilan taqqoslanib, yetmagan quvvatni METdan olish yoki ortiqcha quvvatni akkumulyatsiyalash masalasi hal qilinadi. Uchinchi bosqichda quyosh faolligi davrida SHEQ va FEQ quvvatlari yig‘ilib, bir qismi LET ehtiyoji uchun ishlatiladi va qolgan qismi akkumulyatsiyalanadi. Agar SHEQ va FEQ ning umumiy quvvati ham yetarli bo‘lmasa  $N_2$  quvvat METdan olinadi.

LETda ortiqcha energiyani akkumulyatsiyalash uchun gidravlik usul, ya’ni yuqorida joylashgan havzada suv hajmini NS yordamida to‘plash va undan zarur bo‘lganda gidroenergetik qurilma (GEQ)ga berish orqali energiya ishlab chiqarish usuli taklif qilingan. Bu usulni qo‘llashda asosiy masalalardan biri yuqori havzada energiyani akkumulyatsiyalash uchun zarur bo‘lgan suv hajmini aniqlash hisoblanadi. Ushbu suv hajmini 5 – rasmda keltirilgan grafik uchun quyidagi tenglama bilan aniqlaymiz

$$V_{yM} = 367 \cdot \eta \left[ \mathcal{E}_{NS}(t_1 - t_0) \int_{t_0}^{t_1} H_{NS}^{-1}(t) dt + \mathcal{E}_{NS}(t_3 - t_2) \int_{t_2}^{t_3} H_{NS}^{-1}(t) dt \right] \quad (14)$$

bunda  $H_{NS}(t)$ ,  $\eta$  – NS nabori va f.i.k.

SHEQ va FEQlar energiyasining bir qismi gidravlik usulda to‘planadigan ushbu LETning funksional sxemasi 5 – rasmda tasvirlangan LET ish rejimi grafigiga asosan 7 – rasmda keltirilgan.



7 – rasm. SHEQ va FEQlar energiyasining bir qismi gidravlik usulda to‘planadigan ushbu LETning funksional sxemasi

Mazkur sxemada energetik qurilmalarning quvvatlari  $N_{SHEQ}$ ,  $N_{FEQ}$ ,  $N_{LET}$ ,  $N_{GEQ}$ , va  $N_{NQ}$  bo‘yicha ma’lum belgilangan diskret vaqtlar oralig‘ida o‘lchash amaliyoti amalga oshirilib, ishlab chiqarilgan energiya bilan iste’molchilar talabini qondirish, ortiqchasini akkumulyatsiyalash, yetmaydigan qismini GEQ orqali ishlab chiqish operatsiyalarini belgilangan tartibda bajarish ko‘zda tutilgan.

SHEQning kecha-kunduz ishlash imkoni bo‘lganligi uchun sxemaning barcha taqqoslash bloklarida  $N_{SHEQ}$  ning  $N_{LET}$  ga nisbatan qiymati ko‘rib chiqiladi va taqqoslash natijalariga qarab energiyani akkumulyatsiyalash, ya’ni nasos qurilmasini ishga tushirish yoki yetishmaydigan energiyani qoplash uchun GEQni ishga tushirish masalasi hal qilinadi. Ushbu sxemada 5 – rasmdagi LET ish rejimiga ko‘ra  $N_{FEQ} \geq N_{LET}$  holati mavjud emas, shu sababli bu variant ko‘rib chiqilmaydi.

Nasos qurilmasining quvvati  $N_{NQ}$  ni belgilangan talabga mos ravishda roslash bosim quvuridagi suv sarfi  $Q_{NQ}$  ni roslash orqali amalga oshiriladi. Bunda belgilangan talabga javob beradigan quvvat  $N_{NQ}$  hisoblanadi.

Pastki havzadagi suv sathi  $PS$ ning minimum qiymati nasos qurilmasini ishdan to‘xtatish uchun signal hisoblanadi.

LETda energiya yetishmovchiligi kuzatilgan vaqtlarda GEQni ishga tushirish, ya'ni yuqori suv havzasida to'plangan suvni GEQ orqali pastki suv havzasiga berish bo'yicha buyruq beriladi. Bu holatda ham  $N_{LET} - N_{SHEQ}$  yoki  $N_{LET} - (N_{SHEQ} - N_{FEQ})$  quvvati, ya'ni GEQ quvvati  $N_{GEQ}$  talab qilinayotgan quvvat  $N_{GEQT}$  ga mos bo'lishi uchun uning quvvati davriy ravishda o'lchanib, taqqoslanadi va quvurdagi suv sarfi  $Q_{GEQ}$  rostdash mexanizmlari yordamida mos ravishda rostlab boriladi. Yuqori suv havzasidagi suv sathi minimal qiymatga tushganda GEQ ishdan to'xtatiladi.

LET energetik qurilmalarining ortiqcha energiyasini akkumulyatsiyalash samaradorligini aniqlash bo'yicha bajarilgan hisoblarning natijalari quvvati 18 MVt bo'lgan LETda energiyani gidravlik akkumulyatsiyalash hozirgi kunda keng qo'llanilayotgan litiy – ion akkumulyatorlarga nisbatan 32...36 % iqtisodiy samara berishi, ya'ni har bir MVt-soat akkumulyatsiyalanadigan energiya uchun o'rtacha 100 dollar foyda keltirishi aniqlandi.

Asosiy energiya miqdorini markazlashgan energetik tizimdan oladigan va tarkibida qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosidagi qurilmalar bo'lgan energiya tizimining samaradorligi Qarshi Bosh kanali nasos stansiyalari misolida aniqlandi.

Qarshi Bosh kanali nasos stansiyalari (QBKNS) kaskadining umumiy o'rnatilgan quvvati 450 MVt bo'lib, bir yilda 2,0...2,2 mlrd. kVt-soat elektr energiyani, ya'ni Respublika umumiy energiya iste'molining 3,0...3,5 % ini iste'mol qiladi. Energiya iste'moli katta bo'lganligi uchun kaskadga qarashli sug'orish maydonlarida suvning tannarxi Respublika bo'yicha o'rtacha tannarxga nisbatan 2 barobar ortiq qiymatga ega. Shu sababli QBKNSda energetik xarajatlarni kamaytirish juda muhim ahamiyatga ega.

